



Iroda G'ULOMOVA,

O'zbekiston Milliy Universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: iroda\_8586@mail.ru

ToshFarMI dosenti S.M.Xazratqulova taqrizi asosida

## SYNTHESIS OF CITRIC ACID-BASED POLYMERS AND THEIR PHYSICO-CHEMICAL PROPERTIES

### Annotation

New monomers, acrylamido-N-methylene-citric and acrylamido-N-citric acids, have been synthesized, and methods have been proposed for the preparation of water-soluble and water-swellable reactive polymers based on them. Certain physicochemical properties of the obtained polymers have been determined. The study of swelling of citric acid-based hydrogels has shown that they exhibit stimulus-sensitive properties.

**Key words:** citric acid, monomer, polymer, hydrogel, swelling, molecular mass.

## СИНТЕЗ ПОЛИМЕРОВ НА ОСНОВЕ ЛИМОННОЙ КИСЛОТЫ И ИХ ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА

### Аннотация

Синтезированы новые мономеры - акриламидо-N-метилен-лимонная и акриламидо-N-лимонная кислоты и предложены методы получения водорастворимых и водобувающих реакционноспособных полимеров на их основе. Определены некоторые физико-химические свойства полученных полимеров. Изучением набухания гидрогелей на основе лимонной кислоты установлено, что они проявляют стимул-чувствительными свойства. **Ключевые слова:** лимонная кислота, мономер, полимер, гидрогель, набухание, молекулярная масса.



## LIMON KISLOTASI ASOSIDA POLIMERLAR SINTEZI VA ULARNING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI

### Аннотация

Limon kislotasi asosida yangi monomerlar -akrilamido-N-metilen-limon va akrilamido-N-limon kislotalari sintez qilinib, ular asosida suvda eriydigan va bo'kadigan reaksiyon qobiliyatli polimerlar olindi. Sintez qilingan polimerlarning ba'zi bir fizik-kimyoviy xossalari tadqiq qilindi. Limon kislotasi asosidagi gidrogellarning suvli eritmalarda bo'kishi o'rganilib, ularning stimul-sezgir xossasini namoyon qilishi aniqlandi. **Kalit so'zlar:** limon kislotasi, monomerlar, polimer, gidrogel, bo'kish, molekulyar massa.


**Kirish.** Bugungi kunda jahonda keng miqyosdagi ilmiy va amaliy masalalarni hal qilishda funksional polimerlardan foydalanish, ayniqsa gidrofil xususiyatlari funksional polimerlarni sintez qilish va ularning fizik-kimyoviy xossalari tadbiq qilish bo'yicha keng ko'lamli izlanishlar olib borilmoqda. Funksional polimerlar stimul-sezgir tizimlar yaratishda, biotexnologiya va nanotexnologiya sohalarida ham katta istiqbolga ega bo'lib, ular biologik faol moddalarni immobilizasiya qilish va ular asosida prolongasiyalangan ta'sirga ega bo'lgan terapevtik tizimlar yaratishda alohida ahamiyat kasb etadi [1-5]. Shuning uchun ham ushbu ishning maqsadi limon kislotasi asosida yangi funksional polimerlar sintez qilish va ularning ba'zi bir fizik-kimyoviy xossalari tadbiq qilishdan iborat.

**Natijalar va ularning muhokamasi.** Ishda limon kislotasi asosidagi yangi monomerlar-akrilamido-N-metilen-limon (AA-N-MLK) va akrilamido-N-limon kislotalari (AA-N-LK) quyidagi sxemalar bo'yicha sintez qilindi:



Sintez qilingan monomerlarning tuzilishi ularning element analizi, IQ-, xromoto-mass-spektrfotometriya kabi fizik-kimyoviy hamda kislota va brom sonini aniqlash kabi kimyoviy usullar yordamida identifikasiya qilindi.

Monomerlarni polimerlash suvli eritmalarda amalgga oshirildi. Inisiator sifatida azoizomoy kislotsasining dinitrilidan foydalanildi. Hosil bo'lgan polimerlar, sunda yaxshi eriydi. Ishda chiziqli tuzilishga ega PAA-N-MLK va PAA-N-LK suvli eritmalarining gidrodinamik xossalari va ionlanishi tadqiq qilindi. Sintez qilingan polimerlarning molekulyar massalarini ( $M$ ) aniqlash uchun ularni eritmadan bo'lib cho'ktirish usuli bilan fraksiyalarga ajratildi. Natijada har bir polimerning beshtadan fraksiyasi olindi. Olingan fraksiyalarining massa ulushi,  $0,5\text{N}$  KCl eritmasidagi xarakteristik qovushqoqliklari  $[\eta]$  va tezlanishli ultrasentrifugalash usuli bilan sedimentasiya konstantalari ( $S_0$ ) topildi. Olingan natijalar asosida Flori-Mandelkern tenglamasi yordamida polimer fraksiyalarining molekulyar massalarini hisoblab topildi. Polimer fraksiyalarining  $S_0$  va  $[\eta]$  qiymatlarining ularning molekulyar massasi logarifmik qiymatlariga bog'liqliklari to'g'ri chiziqli ko'rinishga ega ekanligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. PAA-N-MLK fraksiyalarining  $\lg[\eta]$  va  $\lg S_0$  qiymatlarini  $\lg M$  qiymatiga bog'liqligi

Polimerlarning  $0,5\text{N}$  KCl suvli eritmalarida  $[\eta]$  va  $S_0$  qiymatlarini aniqlash orqali ularning molekulyar massalarini hisoblab topish tenglamalari keltirib chiqarildi:

$$\text{PAA-N-LK uchun: } [\eta] = 4,57 \cdot 10^{-3} \cdot M^{0,63}; S_0 = 1,82 \cdot 10^{-15} \cdot M^{0,43};$$

$$\text{PAA-N-MLK uchun: } [\eta] = 1,23 \cdot 10^{-3} \cdot M^{0,56}; S_0 = 1,36 \cdot 10^{-15} \cdot M^{0,48};$$

Polimer eritmalarining suvli eritmalarini potensiometrik titrlash natijalarini Genderson-Xasselbax tenglamasi yordamida qayta ishslash orqali PAA-N-MLK va PAA-N-LK uchun  $pK_0$  qiymatlari hisoblab topilib, ular mos ravishda 3,6 va 3,7 ga tengligi aniqlandi. Ushbu tenglamadan foydalanib, shuningdek polimerlarni ionlanishiga ta'sir qiluvchi elektrostatik, konformasion va boshqa effektlarini qiymatlari ham hisoblab topildi, ular 1-jadvalda keltirilgan.


#### 1-jadval

Polimerlarning ionlanish energiyalari qiymatlari

Polimer	$G_{el}$ , Dj/mol	$G_{xar}$ , Dj/mol	$G_a$ , Dj/mol
PAA-N-MLK	700	11825	12525
PAA-N-LK	665	12382	13249


Tadqiqotlar PAA-N-MLK va PAA-N-LKn ni suvli eritmada ionlanishiga konformasion effektlar ta'siri yuq ekanligini ko'rsatdi.

Ishda shuningdek PAA-N-MLK va PAA-N-LK asosida choklangan tuzilishga ega gidrogellar ham sintez qilindi. Buning uchun monomerlarni suvli eritmada choklovchi vosita (ChV) – N,N-metilen-bis-akrilamid ishtirotida polimerlanishi amalgga oshirildi. Natijada sunda yuqori bo'kish qobiliyatiga ega bo'lgan gidrogellar olindi. Ishda ushbu gidrogellarning suvli eritmalarida bo'kish kinetikasi tadqiq qilindi. Gidrogellarning bo'kish darajasiga ularning tarkibidagi ChV konsentrasiyasi ta'siri 2-rasmda keltirilgan.




2-rasm. PAA-N-LK va PAA-N-MLK asosidagi gidrogellarning suvli eritmalarida bo'kish kinetikasi. 1, 2, 3, 4-gidrogellardagi ChV miqdori mos ravishda 1; 2; 3; 5 massa %; T=295K.

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, gidrogellarning bo'kish darajasi ularning tarkibidagi ChV konsentrasiyasi ortishi bilan kamayib bormoqda. Gidrogellarning bo'kish kinetikasini o'rganish natijalar asosida ularning bo'kish konstantalari qiymatlari ham hisoblab topildi. Olingan natijalar taxlili gidrogel tarkibida ChV miqdorining ortishi ularning bo'kish tezligi kamayishiga olib kelishini ko'rsatdi.



3-rasm. PAA-N-LK (1) va PAA-N-MLK (2) asosidagi gidrogelining bo'kish darajasini eritma pH qiymatiga bog'liqligi




4-rasm. PAA-N-LK (1) va PAA-N-MLK (2) asosidagi gidrogelining bo'kish darajasini ion kuchiga bog'liqligi

Karboksil funktsional guruhlar tutgan gidrogellarning bo'kish darajasi eritma pH qiymati va ion kuchi o'zgarishiga juda sezgir bo'ladi, shuning uchun ham gidrogellarning bo'kish darajasiga ularning ta'siri o'rGANILDI (3 va 4-rasmlar).

3-rasmdan ko'rinib turibdiki, eritma pH qiymatining kamayishi gidrogellarning bo'kish darajasini kamayishiga olib keladi. Buning sababi shundaki, eritma pH qiymatining kamayishi bilan gidrogel tarkibidagi karboksil guruhlarining ionlanish darajasi ham kamayadi, natijada bir xil zaryadlangan karboksil ionlarining o'zaro itarilish kuchi kamayib, bu o'z navbatida gidrogelning bo'kish darajasini ham kamayishiga olib keladi. Ishqoriy sharoitda esa ushbu xodisaning aksi kuzatiladi. 4-rasmdan ko'rinib turibdiki, eritma ion kuchining ortishi bilan gellarning bo'kish darajasi xam shunchalik kamayib boradi. Bu holatni makromolekuladagi bir xil zaryadlangan guruhlarning qo'yimolekulyar ionlar tomonidan ekanlanishi bilan tushuntirish mumkin.

PAA-N-MLK va PAA-N-LK asosida sintez qilingan gidrogellarning bo'kish darajasiga haroratining ta'siri o'rGANILGANDA, eritma haroratini ortishi ularning suvli eritmalarida bo'kish darajasini ortishiga olib kelishi aniqlandi. Olingan natijalar 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. PAA-N-LK (1) va PAA-N-MLK (2) asosidagi gidrogelining bo'kish darajasini eritma haroratiga bog'liqligi. ChV miqdori gidrogel quruq massasining 1% tashkil qiladi.

Demak, olingan natijalar asosida ishda sintez qilingan gellarning bo'kish darajasi nafaqat eritma pH qiymatlariga, shuningdek harorat o'zgarishiga ham bog'liq degan xulosa qilish mumkin. Bunday polimerlar ham pH -, ham haroratsezgir xossaga ega bulgan stimul-sezgir polimerlar hisoblanadi.

**Xulosa.** Ishda limon kislotosi asosida yangi monomerlar -akrilamido-N-metilen-limon va akrilamido-N-limon kislotalari sintez qilinib, ular asosida suvda eriydigan va bo'kadigan reaksiyon qobiliyatli polimerlar olindi va sintez qilingan polimerlarning 0,5N KCl suvli eritmalarida  $[\eta]$  va  $S_0$  kiymatlarini aniqlash orqali ularning molekulyar massalarini hisoblab topish tenglamalari keltirib chiqarildi. Ishda shuningdek limon kislotosi asosida gidrogellar ham olinib, ushbu gellarning bo'kish darajasi eritma muhitiga juda ham ta'sirchan ekanligi aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR

- M.F.Maitz. Applications of synthetic polymers in clinical medicine//Biosurface and Biotribology.2015,V.1,I.3,P.161-176.
- B.V.Slaughter, S.S.Khurshid, O.Z.Fisher, A.Khademhosseini. Hydrogels in Regenerative Medicine // Advanced Materials.2009,№ 4;V.21,P.3307–3329.
- B.D.Ulery, L.S.Nair, C.T.Laurencin. Biomedical Applications of Biodegradable Polymers // J. Polym. Sci. B Polym. Phys. 2011, № 49, V12, R.832-864.
- Muxamediev M.G., Maxkamov M.A., Muxamedov G.I. Sintez i fiziko-ximicheskie svoystva stimul-chuvstvitelnix polimerov na osnove proizvodnix akrilovix kislot. Monografiya. T-t: «Universitet», 2017. S. 168.
- Wei-Min Chenga, Xiang-Ming Hua, Yan-Yun Zhao, Ming-Yue Wu, Zun-Xiang Hu. Preparation and swelling properties of poly(acrylic acid-co-acrylamide) composite hydrogels//e-Polymers 2017; 17(1): 95-106